

**DEMOGRAFIYA
VA MEHNAT
BOZORI**

**2025-yil
4-son**

Elektron ilmiy-ommabop jurnal
Электронный научно-популярный
журнал
Electronic popular science journal

BOSH MUHARRIR:

Umurzoqov Bahodir Xamidovich

MUHARRIR:

Bahriddinova Muazzam Azam qizi

TAHRIR HAY' ATI:

Abduraxmonov Qalandar Xodjaevich, i.f.d., akademik.

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof.,

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof.,

Axmedov Durbek Quدراتillaevich, i.f.d., professor

Umurzakov Baxodir Xamidovich, i.f.d., prof.,

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, i.f.d., prof.,

Arabov Nurali Uralovich, i.f.d., prof.,

Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna, i.f.d., prof.,

Mamadaliyeva Xafiza Xoldarovna, i.f.d., prof.,

Irmatova Aziza Baxromovna, i.f.d., prof.,

Tojiyeva Zulxumor Nazarovna, g.f.d., professor

Isayev Faxriddin Ikramovich, i.f.d., prof.

Usmanov Anvar Saidmaxmudovich, i.f.d., professor

Qodirov Abdurashid Madjidovich, i.f.d., professor

Hermann Sterzinger, i.f.d., professor (Germaniya)

Ergashxodjaeva Shaxnoza Djasurovna, i.f.d., professor

Tomash Kuchera, i.f.d., professor (Chexiya)

Abrorov Sirojiddin Zuxriddin o'g'li, PhD

Shakarov Zafar Gaffarovich, PhD, dotsent

Maxmudov Asliddin Sirojiddin o'g'li, PhD

Gulmurodov Kamoliddin Abduqodir o'g'li, PhD

Asqarova Muhabbat Ibraximovna

Bahriddinova Muazzam Azam qizi

MUNDARIJA

Абдурахманов Каландар Ходжаевич

Модель компетенций и траектории повышения квалификации в профессиональном образовании в условиях внедрения искусственного интеллекта..... 5

Зокирова Нодира Каландаровна

Человеческий капитал и креативная экономика регионов Узбекистана оценка потенциала и точки роста..... 19

Усманов Анвар Саидмахмудович

Теоретический аспект устойчивого экономического роста..... 32

Мамадалиева Хафиза Холдаровна

Ўзбекистондаги демографик ўзгаришлар ва уларнинг иқтисодий ўсишга таъсири..... 43

Каримова Дилдора Мирсабитовна

Перспективы трансформации демографического потенциала узбекистана в демографический дивиденд..... 52

Саиджаббор Шоира Саидгаффор кизи

Экономическая самостоятельность женщин — историческая эволюция, изменение роли женщин на рынке труда и влияние социально-экономических факторов..... 60

Карабаева Гулнора Шарафитдиновна

Роль креативного сектора в обеспечении молодёжной занятости на рынке труда..... 69

Eshqulova Xilola Shoyimqul qizi, Muradova Alina Anvar qizi

Qishloq xo'jaligi tarmoqlarida xizmat ko'rsatish sohasidan samarali foydalanish istiqbollari..... 78

Кахрамонов Хуршидjon Шухрат угли

Современные подходы к обеспечению конкурентоспособности предприятий жилищно-коммунального хозяйства..... 85

Abdullayev Habibullo Asadulla o'g'li

Sun'iy intellektning mehnat bozoriga ta'siri: imkoniyatlar va xavf-hatarlar..... 90

Abdurahmonov Azizbek Akram o'g'li

Investitsion muhitni yaxshilash va xorijiy kapital uchun institutsional sharoitlarni takomillashtirish..... 96

Ilyasova Barno Axmadovna

qtisodiyot tarmoqlarini soliqlar orqali tartibga solish va rag'batlantirish samaradorligini oshirish xususida..... 102

Matkarimova Intizor Atabaevna	109
<i>O'zbekiston hududida aholini ro'yxatga olish tadbiriga tayyorgarlik.....</i>	
Khudoyberdiev Sardor Ismailovich	
<i>The impact of small entrepreneurship on the socio-economic development of regions in our country and its econometric analysis.....</i>	119
Mardiyev Bunyod Sirojiddin o'g'li	
<i>Innovatsion iqtisodiyot sharoitida tikuv-trikotaj korxonalarida mehnat bozorining transformatsiyasi va ishlab chiqarishni samarali tashkil etish mexanizmlari.....</i>	129
Ibrogimov Sherzodbek Xalimjon o'g'li	
<i>Atrof-muhit o'zgarishlari sharoitida iqtisodiy xavfsizlikning strategik ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirish istiqbollari.....</i>	134
Egamnazarov Khusniddin Fakhriddin ugli	
<i>Integrating international experience into sustainable tourism development: evidence from Uzbekistan.....</i>	141
Mirzaeva Matluba Gaybulla kizi	
<i>Digitalization of the banking sector in Uzbekistan: drivers and implications for financial stability.....</i>	152
Nasirova Nargiza Tursunpulatovna	
<i>Namangan viloyatini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari.....</i>	163
Shaxidova Dilafruz Muxtarovna	
<i>Kichik biznesni rivojlantirishda hududiy imkoniyatlardan foydalanish holati: uning muammolari va yechimlari.....</i>	172
Bobomuradova Sarvinoz Ziyadullayevna	
<i>The algorithm for forming transfer prices in trade enterprises and their role in segment reporting.....</i>	180
Batirov Farxad Bakitovich	
<i>Tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirish orqali zamonaviy mehnat bozorining rivojlanishi.....</i>	189
Abdullayeva Aziza Murot qizi	
<i>Ipoteka kreditlash bozorini rivojlantirish istiqbollari.....</i>	194
Alimov Fazliddin Xalimovich	
<i>Qashqadaryo viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar faoliyatini iqtisodiy- statistik tahlili.....</i>	201
Bahriddinova Muazzam Azam qizi	
<i>XItoy davlatida kambag'allikni qisqartirish siyosati.....</i>	209

TADBIRKORLIK FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH ORQALI ZAMONAVIY MEHNAT BOZORINING RIVOJLANISHI.

Batirov Farxad Bakitovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

ORCID: [0009-0002-9252-8373](https://orcid.org/0009-0002-9252-8373)

97-188-86-08

Annotatsiya. Mazkur maqolada tadbirkorlikni moliyalashtirish orqali mehnat bozorida bandlikni ta'minlash, tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi o'рни va ahamiyati haqida so'z yuritilgan. Tadbirkorlik mamlakat iqtisodiyotining asosiy harakatlantiruvchi mexanizmlaridan biri bo'lib, iqtisodiy o'sish va barqaror rivojlanishning muhim omili hisoblanadi. Maqolada aholining ish bilan bandligi tadqiq etilgan. Xususan, Respublika aholisining mehnat bozorida iqtisodiy faollik darajasi statistik tahlil etilib, hududlar o'rtasidagi tafovutlar o'rganilgan. Davlat tomonidan tadbirkorlik qo'llab-quvvatlanishi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: tadbirkorlik subyektlari, moliyalashtirish, mehnat bozori, bandlik, imtiyozli resurs

РАЗВИТИЕ СОВРЕМЕННОГО РЫНКА ТРУДА ПУТЕМ ФИНАНСИРОВАНИЯ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Батыров Фархад Бакитович

Ташкентский государственный экономический университет

независимый исследователь

Аннотация. В данной статье анализируется обеспечение занятости на рынке труда посредством финансирования предпринимательства, обсуждается роль и значение предпринимательства в экономике страны. Предпринимательство является одним из основных движущих механизмов экономики страны и выступает важным фактором экономического роста и устойчивого развития. В статье исследуется занятость населения. В частности, статистически проанализирован уровень экономической активности населения на рынке труда республики, изучены различия между регионами. Проведен анализ поддержки предпринимательства со стороны государства.

Ключевые слова: субъекты предпринимательства, финансирование, рынок труда, занятость, льготные ресурсы.

DEVELOPMENT OF THE MODERN LABOR MARKET BY FINANCING ENTREPRENEURSHIP

Batirov Farkhad Bakitovich

*Independent researcher of the
Tashkent state university of economics*

Abstract. *This article analyzes employment provision in the labor market through entrepreneurship financing and discusses the role and significance of entrepreneurship in the country's economy. Entrepreneurship is one of the main driving forces of the country's economy and is an important factor in economic growth and sustainable development. The article examines the employment of the population. In particular, it provides a statistical analysis of the level of economic activity of the population in the republic's labor market and studies the differences between regions. Additionally, it includes an analysis of state support for entrepreneurship.*

Keywords: *business entities, financing, labor market, employment, favorable resources.*

Tadbirkorlik subyektlari rivojlanishida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi muhim ahamiyatga ega. "Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash – strategik yo'limiz", - dedi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tadbirkorlik vakillari bilan uchrashuvda. Yurtimizda bu soha ish o'zni, investitsiya, innovatsiya, raqobat, qo'shilgan qiymat va eksportni ko'paytirishga eng katta turtki berayotgan yo'nalishga aylandi. So'nggi besh yilda kichik va o'rta tadbirkorlar soni 2 karra ko'paydi. Ularda 10 million 500 ming odam – jami band aholining 74 foizi daromad topib, ro'zg'or tebratayapti. Xususan, aholini tadbirkorlikka jalb qilish uchun 22 trillion so'mlik imtiyozli resurs ajratiladi. Shuning 2,5 trillion so'mi yoshlarga, yana shunchasi ayollar tadbirkorligi loyihalari uchun yo'naltiriladi [8].

Aholining ish bilan bandligi mamlakatning yalpi ichki mahsulotining o'sishi, yashash darajasining oshishi va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Aholi rivojlanishiga ijtimoiy-iqtisodiy omillar hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi. Aholi bandligi esa mana shunday omillardan biri bo'lgan, murakkab ijtimoiy-iqtisodiy jarayon hisoblanadi.

O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning afzalliklari hisobga olingan holda uni izchil rivojlantirish mustaqillikka erishilgan dastlabki davrdan boshlab davlatning ustuvor vazifasi darajasiga ko'tarildi. Strategik maqsadlar-zamonaviy demokratik davlat qurish, aholining hayot darajasini munosib bosqichga ko'tarish, bozor munosabatlariga asoslangan erkin iqtisodiyotga o'tish, shuningdek, taraqqiy topayotgan mamlakatlar tajribasi

inobatga olingan holda, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berildi [6].

Iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarishga oid nazariyalarga ko'ra, davlatning iqtisodiyotga aralashuv saqlanib qoladi, ammo uning ulushi juda kam doirada bo'lish kerak, biroq, mulkchilik shakllari bo'yicha iqtisodiy faoliyat yuritishda davlat mulkidagi korxonalarning mavjudligi ham iqtisodiy ham ijtimoiy zarurat sifatida yuzaga chiqadi [7].

1-jadval

Mamlakatimiz mehnat bozorida bandlar soni [9].

Hududlar	2019	2020	2021	2022	2023	2024
O'zbekiston Respublikasi	13541,1	13236,4	13538,9	13706,2	14014,2	14 261,9
Qoraqalpog'iston Resp	711,3	707,4	702,6	714,2	735,5	759,4
Andijon viloyati	1 284,5	1 225,9	1 264,3	1 296,8	1 329,0	1 338,6
Buxoro viloyati	797,1	788,0	777,3	780,6	803,2	796,7
Jizzax viloyati	536,2	534,3	550,7	546,4	553,9	559,2
Qashqadaryo viloyati	1 220,0	1 171,0	1 202,5	1 207,3	1 220,1	1 296,3
Navoi viloyati	412,7	399,4	410,4	410,1	426,4	435,2
Namangan viloyati	1 104,6	1 088,7	1 104,8	1 100,6	1 129,1	1 159,6
Samarqand viloyati	1 455,8	1 418,3	1 441,3	1 479,8	1 504,2	1 521,1
Surxandaryo viloyati	1 024,2	985,5	1 001,9	1 006,3	1 011,2	1 024,9
Sirdaryo viloyati	350,1	332,2	334,1	335,0	338,0	351,2
Toshkent viloyati	1 232,9	1 177,2	1 222,1	1 204,5	1 234,9	1 251,6
Farg'ona viloyati	1 492,6	1 448,6	1 483,3	1 511,7	1 555,4	1 563,9
Xorazm viloyati	736,5	716,4	726,4	741,8	776,5	779,5

Tadbirkorlikni rivojlantirish orqali aholi bandligini ta'minlashda davlat boshqaruv dastaklaridan foydalanadi (Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Markaziy bank, «Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi» AJ va boshqalar). Ayrim tadbirkorlik sohalarini rivojlanishini davlat aralashuvisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Misol uchun tadbirkorlikni rivojlantirish orqali aholi bandligini ta'minlashda infrastrukturani rivojlantirish ham katta ahamiyatga ega. Chunki yo'l bo'lmasa, aholi ishga qatnashi murakkablashadi yoki ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektlari mahsulot yetkazib berolmaydi.

Tadbirkorlik subyektlariga yangi ish o'rinlarini yaratish uchun beriladigan imtiyozlar yangi ish o'rinlarining soniga bog'liq bo'ladi. Shunday qilib, agar korxonada 200 dan ortiq ehtiyojmand odam ish bilan ta'minlansa, kompaniya soliq tekshiruvlaridan ozod qilinadi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori bilan «20 ming tadbirkor - 500 ming malakali mutaxassis» dasturi ishtirokchilari uchun imtiyozlar hamda preferensiyalarni qo'llashni tartibi tasdiqlandi [5].

Kredit olish uchun ariza «hamkorlik shartnomasi» tuzilgandan so'ng Dasturda ishtirok etadigan tadbirkorlik subyekti tomonidan mustaqil ravishda

yoki hokim yordamchisining ko'magi bilan platforma orqali elektron shaklda taqdim etiladi. Kreditlar 14 foiz stavkada 7 yilgacha, aylanma mablag'larni to'ldirish uchun 18 oygacha muddatga ajratilgan. Bunda kreditlar:

- 5 mlrd so'mgacha — 51 tadan 100 tagacha yangi ish o'rni yaratishni rejalashtirgan tadbirkorlik subyektiga;
- 10 mlrd so'mgacha — 101 tadan 200 tagacha yangi ish o'rni yaratishni rejalashtirgan tadbirkorlik subyektiga;
- 15 mlrd so'mgacha — 200 tadan ortiq yangi ish o'rni yaratishni rejalashtirgan tadbirkorlik subyektiga ajratildi.

Banklar tomonidan tadbirkorlikni rivojlantirish hisobiga 2025 yil yakuniga qadar 3.570,0 ming nafar aholini daromadli mehnat bilan band qilish, shu jumladan 2.100,0 ming nafar kishini kichik va o'rta biznesga jalb qilish uchun 120.378,0 mlrd so'm kredit ajratish maqsad qilib qo'yilgan. 2025 yilda aholini daromadli mehnat bilan ta'minlash dasturi doirasida Markaziy bank va tijorat banklarining mahalla bankirlari faoliyatini yo'lga qo'yilgan [2].

Xulosa va takliflar.

Tadbirkorlikni moliyalashtirish, ayniqsa, yoshlar, ishsizlar va ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi o'rtasida bandlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. O'zbekistonda ish o'rinlari yaratish maqsadida biznes-loyihalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bir qator davlat dasturlari asosida amalga oshirilmoqda. O'zbekistonda 20-avgust «Tadbirkorlar kuni» etib belgilangan, har yili davlatimiz rahbari tadbirkorlar bilan ochiq muloqot o'tkazib, tadbirkorlikni rivojlantirish orqali aholi bandligini ta'minlash bo'yicha qulay shart-sharoit yaratish bo'yicha muttasadilarga ko'rsatma beradilar. Buning natijasida faoliyat olib borayotgan tadbirkorlik subyektlari rivojlanib, yirik soliq to'lovchisiga aylanishi kuzatilmoqda, ya'ni «o'zini o'zi band qilgan shaxs-yakka tartibdagi tadbirkor-kichik biznes-o'rta biznes-yirik korxona» zanjiri amal qiladi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-martdagi «Kichik va o'rta biznesning iqtisodiyotdagi o'rnini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-50-sonli Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 17 yanvardagi «2025 yilda aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-12-sonli Qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-maydagi «Tadbirkorlik subyektlariga subsidiyalar, imtiyozlar va preferensiyalarni taqdim etish tartiblarini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-193-sonli Qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-noyabrdagi «Kichik

va o'rta biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-193- sonli Farmoni.

5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 7 iyuldagi «20 ming tadbirkor — 500 ming malakali mutaxassis» dasturini amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida»gi VMQ-279-sonli Qarori.

6. Abdurahmonova G.Q. Kichik biznesda aholini ish bilan ta'minlash. Monografiya. T.: „Iqtisodiyot“, 2014.

7. Xudoyqulov S.K. Davlat ishtirokidagi korxonalarni moliyalashtirishning ilmiy-nazariy asolari. <https://cyberleninka.ru/article/n/davlat-ishtirokidagi-korhonalarni-moliyalashtirishning-ilmiy-nazariy-asolari>

8. <https://www.president.uz/oz/lists/view/7955> - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti.

9. <https://www.stat.uz/uz/rasmiy-statistika/labor-market-2> - O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi

DEMOGRAFIYA VA MEHNAT BOZORI

BOSH MUHARRIR:

Umurzoqov Bahodir Xamidovich

MUHARRIR:

Bahriddinova Muazzam Azam qizi

